

Mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi

Har bir millat o'z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko'radi. Shu bois mamlakatimizda istiqbol yillarida navqiron avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish, ularni turli zararli ta'sirlardan asrash, maqsadida barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Muhtaram Prezidentimizning "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aynan ushbu ishlarimizni tizimli yo'lga qo'yib olishimizga dasturulamal bo'ldi.



Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbayerov, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet tyutorlari hamda talabala-yoshlari fakultetga biriktirilgan M.Ulug'bek tumanidagi "Asaka" mahallasidagi yangi tashkil etilgan Yoshlar yetakchisi lavozimiga tayinlangan Puchinyan Artur Yurevich bilan tanishuv bo'lib o'tdi.



Ushbu tanishuv mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator ishlarni rejalashtirildi. Dunyoda kechayotgan globallashtirish jarayonlari, ayniqsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul vazirlik, idora hamda tashkilotlar, ota-onalar, mahallalar faollari, qo'ni-qo'shni, ta'lim muassasalari o'qituvchi va murabbiylari hamda jamoatchilik zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, ertamiz egalarini yurtparvar, insonparvar, yuksak ma'naviyatli, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar qilib voyaga yetkazish bugungi kundagi burchimizdir.

YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti